



## ABDULLA ORIPOV IJODIDA TASVIRIY IFODA VA RAMZIYLIK TUSHUNCHASINING AHAMIYATI

Salomova Diyora Vahob qizi  
Sulaymonova Aziza Ilhom qizi

“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash  
muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti  
2-bosqich bakalavriat talabasi talabasi  
Jizzax politexnika instituti 2-bosqich bakalavriat talabasi talabasi  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7769709>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 17- mart 2023 yil  
Ma‘qullandi: 19-mart 2023 yil  
Nashr qilindi: 25-mart 2023 yil

### KEY WORDS

Psixologik tasvir, lirik obyekt,  
lirik kechinma, birinchi  
muhabbatim she‘ri

### ABSTRACT

*Ushbu maqola Abdulla Oripovning she‘rlarida vatan madhi, ijtimoiy kundalik hayot masalalari shu bilan birgalikda, mustaqillik yillarida yaratilgan sermahsul ijodiyotida ramziylik va tasviriy ifodaning o‘ziga xos jihatlari yoritib berilgan. Abdulla Oripovning she‘riy asarlarda so‘z qo‘llash mahorati, tasvir mohiyatini teran yetkazib berish texnikasi yuzasidan ijtimoiy qarashlar yuritilgan ushbu maqolada shoir shaxsiyatiga tegishli bo‘lgan bir qancha she‘rlariga tahliliy munosabat bildirilgan.*

Abdulla Oripov ojodi o‘tgan davr voqealari hamda ko‘ngil kechmishtlarini mohirona ochib berishga qaratilgan bo‘lib, kitobxonlar e‘tiborida bo‘lib kelmoqda. Ijodiy salohiyatining aksariyat qismini ramziylik va tasviriylikka yo‘g‘rilgan she‘rlari sharqona qarash, milliy mentalitetni yorqin tasvirlashi bilan ajralib turadi. Abdulla Oripovning Birinchi muhabbatim nomli she‘rida ijodkor qalbini junbushga keltirgan his-tuyg‘ular qoliplar asosida yuzaga kelgan. Shoirning aksariyat she‘rlari barmoq vaznining o‘n bir, o‘n uch yoki boshqa shakllarida ham namoyon bo‘ladi. Abdulla Oripovning Birinchi muhabbatim she‘rida dunyoning anglab, yetib bo‘lmaydigan sir ekanligi anglashiladi. Bu orqali dunyoning g‘animat ekanligi hamda uning ishlariga inson zotining aqli yetmasligiga kichik bir urg‘u berib o‘tgandek go‘yo. Dunyoning kishining hayoti, kayfiyatiga qarab dunyoning keng bo‘lishi va qolaversa, tashvishlar kishini qurshagan chog‘ dunyoning tuynuksiz qasirga aylanib qolishi she‘r davomida tasviriy ifodaning aosli va haqqoniy tasvirini ochib bergan. She‘rning nomidan kelib chiqib shoirning dil so‘zlari uning yuz-u ko‘zlarini kuldurgan, hayitiga bir vaqtlar baxtiyorlik hissini olib kirgan birinchi yori yoki muhabbatiga atalgan yoki ramziylikka yo‘g‘rilgan sarlavha qo‘yilgan ekanini anglash mumkin.

Holbuki, orzulardan judo ham bo‘lganim yo‘q,

Yulduzday kulganim yo‘q, oy kabi to‘lganim yo‘q.

Erta hazon gul kabi sarg‘ayib, splganim yo‘q,

Seni eslab yig‘layman, birinchi muhabbatim,

Eslab bag‘rim tig‘layman birinchi muhabbatim.

She‘r davomida muhabbatning inson hayotida tutgan o‘rniga urg‘u beriladi. Kishining hayoti muhabbat bilan bevosita bog‘liq bo‘lishi she‘r nomidan hamda misralar takrorida qo‘llanilishidan ham sezish mumkin. Ayni

ushbu fikrlar yuzasidan kishining hayotida yo'lini yo'qotsa muhabbatga suyanishi lozimligiga urlu beriladi. Bunda muhabbat kishining hayotiga turlich ta'sir etishi - shodlik, qayg'ular, kechmishtar bilan bog'liq ekanligi har ikki ma'noda ramziy va haqiqiy ma'noda o'z ifodasini topishga anglashiladi. Shunday ma'noda kishining yo'lini yo'qotsa, g'ussaga botgan holatda yoki chorasiz qolsa va boshqa holatlarda birinchi muhabbatga suyanishi kabi tasviriy ifodalarning berilishi har ikkaka ma'noda muhabbat tushunchasi yor va ilohiy yaratilarning o'ziga xosligini ochib berishda o'ziga xos manba bo'lib xizmat qiladi. "Abdulla Oripovning Erkin vohidovga bag'ishlangan "Arslon chorlaganda..." deb nomlangan she'rida bu ikki zamondosh shoirning ulug' maqsadlarini arslonga o'xshatadi. Buyuk qalb sohiblari bo'lmish bu shoirlarning ezgu maqsadlar shohi - arslon qoshiga chorlagandi. Va bu ulug' maqsadlarga erishish uchun ularda matonat ham, bardosh ham bor edi. Lekin ularga yo'lda qumursqalar - razil va xudbin insonlar hamrox bo'ldilar". [1]

Abdulla Oripov she'riyati haqida so'z ketganda lirik obyektlarning to'g'ri tanlanishi hamda she'r mavzularining keng ko'lamdorligi ham she'riyatning tavsiflanishini sezish mumkin. Tanlangan mavzuning ma'lum qoida va strukturalarga muvofiq tarzda qofiyaga solinishi shoirning badiiy estetik mahoratini, shu bilan birga shoir ochib bermoqchi bo'lgan moyiv ham nazarga tashlanadi. Abdulla Oripov ijodining yorqin namunasi sifatida shoirning „Tilla baliqcha“ nomli she'rini keltirish mumkin. Shoir o'zi yashab turgan davr va muhitning yaxlitlikda tasvirlanishida turli o'xshatish vositalarining qo'llanilishi kuzatiladi. "Shoirning talabalik yillarida chop etilgan ushbu she'ri o'tgan davr dunyo hamjamiyatining ijtimoiy hayoti yang'lig' so'z yuritganday go'yo".[2] She'r davomiyligida kichik bir ko'lmakda dunyo haqidagi tasavvurlari bilan qolib ketguvchi baliqning ramziy ma'noda she'riy misralarga jamlanishi Abdulla Oripov ijodiga xos vositalardan biridir. "Tilla baliqcha" she'rining otdilar, yopdilar, xazoni, dunyoni kabi qofiyalari sodda va samimiy so'z qo'llash mahoratidan dalolat beradi. Qo'shimcha tarzda shuni aytish mumkinki, Abdulla Oripov she'rlarida jarangdorlik, qofiyqlarning ravon tarzda ifodalanishi ham yuksak ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Abdulla Oripov she'riyati o'tgan davr 60-yillarining realistik tasvir uslubini ochib beruvchi jonli manba bo'lib xizmat qiladi. A. Oripovning so'zga chechan mohir ijodkor ekanligini uning davlatimiz madhiyasi matnida hamda boshqa she'rlarining idodaviylikda namoyon bo'lishi bilan ajralib turadi. She'rlarida poetik obrazning psixologik tasvir mohiyati bilan hamkorlikda ifodalanishi va qolaversa, Abdulla Oripov ijodida qo'llaniluvchi obraz va obrazlilik, lirik kechinmalarining mohirona tasvirlanishi so'z qo'llashdagi mohirlik qobiliyatidan dalolat beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Maqsuda Ergasheva "Abdulla Oripov she'riyatining o'ziga xos xususiyatlari". Toshkent: "Qalb sadosi" gazetasi 2017
2. Begimqulov Doniyor Oripov A. Bedorlik. She'rlar. Toshkent: Yozuvchi nashryoti 1999